VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

# TADBIRKORLIKNING JAMIYAT UCHUN AHAMIYATI

**Abdimuratova Roza Jumamuratovna**

Taxiatosh kasb-hunar maktabi,Taxiatosh tumani,

Biznes asoslari fani o`qituvchisi

**Annotatsiya**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me'yoriy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tadbirkorlikning jamiyat uchun ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar**

iqtisodiyot sohasi, tadbirkorlik, jamiyat, Kichik biznesni rivojlantirish, iqtisodiyotning tarkibiy negizi, sarmoya, xususiy tadbirkorlik.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish masalasi O‘zbekiston hukumatining iqtisodiyot sohasida amalga oshirayotgan islohotlarida eng ustuvor, davlat siyosati darajasida ko‘tarilgan masalalardan biri bo‘lib, bu xususda mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov izohlab berganidek, «...kichik biznes va xususiy tadbirkorlik — jamiyatimizning, bugungi va kelajak taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo‘lishi shart»[1].

Kichik biznesni rivojlantirish asosida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi:

Birinchidan, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi, shuningdek, aholini ish bilan ta’minlashda, uning daromadlarini oshirishda eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, hozirgi sharoitda jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobat keskinlashib borayotgani hammaga ayon. Aynan kichik biznes o‘zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani hamda shu tariqa bozor konyunkturasining o‘zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha olishi bilan e’tiborlidir.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘sishi bilan mamlakat tayanchi va suyanchi bo‘lgan mulkdorlar o‘rta sinfini shakllantirish vazifasi bevosita hal etiladi. Umuman aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda aholi bandligini ta’minlaydigan va uning asosiy daromad manbayi bo‘lgan muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Shuning uchun, respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi sharoitida iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘naltirilishini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste’molchilar talablari asosida amalga oshirish va tashkil etish

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

hamda fuqarolarni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlariga keng yo‘l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlardan to‘la foydalanishi, yuqori samara, tashabbus va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyatini olib borishlariga katta e’tibor qaratilyapti.

Barcha masalalarni yechishda tadbirkorlik asosiy yondashuv sifatida ko‘rilayotgan joyda alohida shaxslarning ham, butun jamiyatning ham taraqqiyoti sezilarli darajada tezlashadi.

Tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi omil bo‘lgani tufayli, dunyoqarashga ham, boshqaruv faoliyatiga ham ishbilarmonlik yondashuvini tatbiq etish orqali alohida shaxslar ham, butun jamiyat ham farovon hayot sari o‘z harakatlarini tezlashtirishlari mumkin.

Alohida shaxslar va butun jamiyatning maqsadlari. Maqsadlarni qo‘yish va ularga erishish bo‘yicha qilinadigan keyingi ishlar jamiyatning yetukligi va mas’uliyatliligining belgisidir, xuddi shuningdek, alohida shaxslar yetukligining belgisi hamdir. Odamlar iqtisodiy hayotda o‘zlari uchun qanday maqsadlar qo‘yishadi? Va bu maqsadlarga qanchalik muvaffaqiyat bilan erishiladi? Quyida mana shu savollar muhokama etiladi.

To‘liq hajmli iqtisodiyot — bu odamlar o‘z iqtisodiyoti uchun qo‘yadigan eng muhim maqsadlardan biri. Biz mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish resurslari — mehnat, sarmoya, tabiiy resurslardan to‘laqonli foydalanishni hamda bu resurslardan samarali foydalanishni xohlaymiz.

Qay darajada biz to‘liq bandlik va to‘liq hajmli ishlab chiqarish maqsadlariga erishayapmiz? Aslida, jamiyatdagi mehnatga layoqatli va ishlashni xohlaydigan 100 % erkak va ayollar doimiy asosda ish bilan ta’minlanishini kuta olishmaydi. Ma’lum miqdorda — taxminan mehnatga layoqatli aholining 2 % dan 5 % gacha qismi doimo ishsiz bo‘ladi. Ammo lekin millionlab odamlar hech qanday zaruratsiz ishsizlar toifasiga mansub bo‘lsa, bu ular o‘z mamlakatining farovonligiga foydali hissa qo‘shmayotganligi va ishlab pul topmayotganliklarini bildiradi. Shu sababdan, to‘liq bandlik hamda mehnatning yuqori samaradorligini taqozo etuvchi to‘liq hajmli ishlab chiqarish maqsadi, bizning iqtisodiyotimiz uchun eng muhim maqsadlardan biridir.

Barqaror o‘sish — bu ikkinchi muhim maqsaddir. Biz iqtisodiyotimiz yildan yilga yanada kattaroq va yaxshiroq bo‘lishini xohlaymiz. Biz o‘zimizning tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqarilishini son jihatdan yalpi milliy mahsulot (YMM) degan statistik ko‘rsatkichining o‘zgarishini kuzatib baholaymiz. Iqtisodiy o‘sish — bu aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YMM (aholi soniga bo‘lingan umumiy YMM)ning doimiy ko‘payishidir.

Biz ish faolligi qandaydir pastga tushishlarsiz yoki narxlarning tez o‘sishisiz (inflatsiyasiz), yoki ishsizlik oshmasdan, YMM nisbatan doimiy sur’atlar bilan yiliga 4 % dan 5 % gacha o‘sishiga erishish uchun intilamiz. Ishlab chiqarish, bandlik va YMMning o‘sishi — bu ko‘rsatkichlarning barchasi juda yaxshi o‘lchanadi. Lekin biz ayrim boshqa iqtisodiy maqsadlarni ko‘rib chiqishga o‘tganimizda, ular to‘g‘risida umumiyroq yondashuvlardan kelib chiqib, fikrlashimiz lozim.

Tanlov erkinligi — bu deyarli har bir odam o‘z oldiga qo‘yadigan maqsadlar ro‘yxatining birinchi qatorida turadigan maqsaddir. Lekin aniq atamalarda bu nimani bildiradi? Iqtisodchilar,

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

tanlov erkinligi iste'molchilar, xodimlar va biznes uchun muhimligini ta'kidlashadi. Iste'molchining tanlov erkinligi — iste'molchilar faqatgina o'z ehtiyojlari va xohishlariga asoslanib, juda keng doiradagi muqobil tovarlardan, o'zlari sotib olishni xohlagan tovarlarni tanlab olishlari mumkinligini bildiradi. Iste'molchiga «Siz o'zingiz xohlagan har qanday o'lchamli va rangli shlapaning egasi bo'lishingiz mumkin, lekin bu shlapa o'rta o'lchamda va qora rangli bo'lishi shart!» deb gapiriladigan tizim bizni mutlaqo qoniqtirmaydi.

Kasbiy faoliyatni tanlash erkinligi — iqtisodiy erkinlikning muhim tomoni. Erkaklar va ayollar havas bilan bajaradigan va ayni vaqtda shundan munosib ish haqi hamda shaxsiy qoniqish olinadigan ishni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishni xohlashadi. Va nihoyat, «erkin tadbirkorlik»ning muhimligi to'g'risidagi gaplarni tez-tez eshitib turamiz. Bu — tanlash erkinligining muhim jihati. Bu odamlarga o'z bizneslarini erkin tashkil etish va, natijada foyda ko'rish uchun, ishlab chiqarish omillaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beradi. Zamonaviy iqtisodiyot tizimi erkinlikning mana shu xususiy turi poydevoriga qurilgan.

Imkoniyatlar tengligi — yana bir maqsad. Bu tanlash erkinligi bilan uzviy bog'liq, chunki barcha odamlar taxminan teng darajadagi erkinlikka — iste'molchi, xodim va tadbirkor sifatida o'z huquqlarini amalga oshirish erkinligiga ega bo'lishlari lozimligini ta'kidlaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik maqsadi — bizning iqtisodiy jamiyatimiz a'zolari munosib oziq-ovqat, kiyim, turar joy va boshqa zarur narsalar olishga yetarli miqdorda pulga ega bo'lishlariga intilishimizni bildiradi. Kambag'allikning keng tarqalishi nafaqat bizning odamlar uchun iqtisodiy xavfsizlik maqsadiga erishishga urinishimiz bekorga ketganidan dalolat beradi, balki jamiyatda iqtisodiy adolat maqsadiga erishish imkoniyati to'g'risida ham jiddiy savolni ko'taradi. Iqtisodiy hayotda betaraflik va adolat tushunchalarining talqiniga har kim ham qo'shilavermaydi, lekin deyarli barcha bu maqsad qo'yilishi va unga erishishga qaratilgan ishlar bajarilishi muhimligini tushunishadi.

Yana bir muhim iqtisodiy maqsad borki, u bir mamlakatning davlat chegaralari bilan cheklanib qolmay, boshqa mamlakatlarga ham tarqaladi. Bu — xalqaro muvozanat (balans) maqsadi. Biz tashqi savdo va xalqaro to'lovlar sohalarida mustahkam va muvozanatga keltirilgan aloqalarni saqlab turishni xohlaymiz. Bu maq-sadga erisha olmaslik, nafaqat mamlakat ichkarisi va xorijda jiddiy iqtisodiy muammolar tug'dirishi mumkin, balki tinchlikka xavf tug'diradigan xalqaro keskinlikning oshish ehtimoli ko'payishiga olib kelishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
2. Sh.Z. Abdullayeva. Pul muomalasi va kredit. O'quv qo'llanma. T., «ILM ZIYO», 2013.
3. Y. Abdullayev. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. T., «Mehnat», 1997.

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

4. Abdullayev, H. Avbeshev, A. Ergashev. Tadbirkorlik moliyasi. T., «Ijod dunyosi», 2003.
5. H. Aybeshev va boshq. Marketing asoslari. O‘quv qo‘llanma. T., «ILM ZIYO», 2013.
6. E.A. Akromov. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. T., «Moliya», 2003.
7. В.Г. Князев, Д.Г. Черник. Налоговые системы зарубежных стран. М., «ЮНИТИ», 2003.
8. М.Н. Крейнина. Финансовый менеджмент. Задачи, деловые ситуации и тесты. М., «Дело и сервис», 1999.
9. T.S. Malikov. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T., «Akademiya», 2002.
10. Малый бизнес. Учебное пособие. М., «КНОРУС», 2009. Национальная инновационная система Узбекистана. Оценка потенциала и результативности. Т., Институт прогнозирования и макроэкономических исследований, ПРООН в Узбекистане, 2011.
11. A. Mamanazarov. Soliq siyosati. T., «Moliya», 2003. Menejment va biznes asoslari. T., 1997

WORDLY
KNOWLEDGE